
“Mahmud Zamaxshariy-sharqning mashhur allomasi va mutafakkiri” xalqaro onlayn-ilmiy anjumani haqida

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Xorazm viloyati hokimligi, Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Xorazm Ma’mun akademiyasi va Urganch davlat universiteti tomonidan “Mahmud Zamaxshariy-sharqning mashhur allomasi va mutafakkiri” xalqaro onlayn-ilmiy anjumani bo‘lib o‘tdi.



Anjumanda Ozarbayjon, Turkiya va O‘zbekiston respublikasining olimlari tomonidan ilmiy ma’ruzalar qilindi. Konferensiyada Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi bo‘lim boshlig‘i, filologiya fanlari doktori Almaz Ulviy Binnatova “Mahmud az-Zamaxshariy asarlarining Ozarbayjonda tadqiqi”, Turkiyaning Saljuq universiteti professori, filologiya fanlari doktori Mustafa Demirji “Zamaxshariy ilmiy merosining turk tili taraqqiyotidagi o‘rni”, Amasiya universiteti professori, tarix fanlari doktori Aykut O‘zbayrakdarning “Az-Zamaxshariy ilmiy merosining Turkiyada o‘rganilishi”, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi prorektori, filologiya fanlari doktori, professor Z.M.Islomovning “O‘zbekiston mustaqilligi yillarida Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosining o‘rganilishi”, ushbu akademiya O‘zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.A.Nasirovaning “Zamaxshariyning “Al Mufasssal” va “Al-Unmuzaj” asarlari matnining qiyosiy tahlili”, Sharq mamlakatlari adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasi mudiri o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori D.J.Xudjanovaning “Zamaxshariy “ Al-qista’s” asarining aruzshunoslik tarixidagi o‘rni”, Xorazm Ma’mun akademiyasi ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limi boshlig‘i R.B.Mahmudovning “Zamaxshariyning arab tili grammatikasi rivojiga qo‘shgan hissasi va o‘rni”, UrDU professori, filologiya fanlari doktori A.D.O‘rozboyevning “O‘zbek tili tarixi ta’limida Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” asari o‘rni”, Xorazm Ma’mun akademiyasi katta ilmiy xodimi D.Bobojonovning “Zamaxshariyning tafsir ilmiga qo‘shgan hissasi”, akademiya ilmiy kotibi, geografiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim D.R.Ro‘zmetovning “Zamaxshariy jug‘rofiyasi-Hijoz tog‘lari va suvlari asari”, katta ilmiy xodim, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori U.Bekimmetovning “Xorazm faxri-Jorulloh”, O‘zFA san’atshunoslik instituti doktoranti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori M.Abdullayevning “Zamaxshariyning mantiq ilmiga qo‘shgan hissasi”, O‘zFA Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi J.O.Jo‘rayevning “O‘zFA

Sharqshunoslik instituti fondidagi Zamaxshariy asarlari qo‘lyozmalari tasnifi” mavzusidagi ma’ruzalari tinglandi. Xulosa qilinganda Zamaxshariyning boy merosi haqida qimmatli fikrlar bildirildi.

